

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022-yil yanvar-sentabr)

1. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi YalM hajmi joriy narxlarda **627 476,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan **5,8 %** ga o'sdi.

YalMning o'sishiga sanoat tarmog'i eng katta hissa qo'shdi, u 5,3 % ga o'sdi. Sanoat tarmog'ining o'sishi hisobiga YalMning 1,4 f.p. ga o'sishi ta'minlandi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi 6,3 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YalM o'sishiga ijobiy hissasi 0,4 f.p.ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati 7,9 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 8,8 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 13,5 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 6,0 % ga o'sdi. Xizmat ko'rsatish sohasining YalM o'sishiga ijobiy hissasi 2,8 f.p.ni tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi 3,6 % ni tashkil etdi va YalM o'sishiga ijobiy hissasi 0,9 f.p ni tashkil etdi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 4,1 % ga o'sdi va YalM o'sishiga ijobiy hissasi 0,3 f.p ni tashkil etdi.

2. Sanoat mahsuloti

2022-yil yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **391,9** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi **105,3 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida qayta ishlash sanoatining ulushi 82,9 % ni, - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 9,8 % ni, elektr ta'minoti, gaz, bug' va havoni tozalash 6,8 % ni, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish 0,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 % ga, shuningdek elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining 14,7 % ga, tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 % ga ko'payishi bo'ldi.

Shu bilan birga, suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining - 10,6 % ga kamayish kuzatildi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish (2021-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 141,8 %), to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (107,7 %) shuningdek metallurgiya sanoati

(103,9 %) ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (o'tgan yilning shu davriga nisbatan (92,7 %), kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (79,4%), korxonalarida ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ko'mir qazib olish (2021 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,2%) va metall rudalari (107,0 %) o'sishi kuzatilmoqda.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan iste'mol tovarlarining o'sish sur'ati 127,0 % ni tashkil etdi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi 35,0 % ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 35,5 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021-yilning mos davriga kelib oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 121,4 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlari 130,3 % ni tashkil etdi.

3. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **248 646,8** mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan **103,6** % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 241 773,1 mlrd. so'mni (103,6 %), o'rmon xo'jaligida – 5 414,0 mlrd. so'mni (102,3 %), baliqchilik xo'jaligida – 1 459,7 mlrd. so'mni (120,6 %) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (3,5 %) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi go'shtning – 4,6 % ga, tuxumning – 7,8 % ga, donning – 6,4 % ga, kartoshkaning – 6,6 % ga, polizning – 8,2 % ga, meva va rezavorlarning – 6,8 % ga, uzumning – 3,8 % ga va ovlangan baliqlarning – 19,3 % ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,6 % - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 28,7 % - fermer xo'jaliklari, 4,7 % - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

4. Inflyatsiya darajasi

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **8,1** % ni tashkil etdi.

Yil boshidan **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari o'rtacha **10,0** % ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiy o'sish sur'atiga 4,21 % darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) ta'sir etdi. **Nooziq-ovqat mahsulotlari** narxlari ushbu davrda **7,9** % ga qimmatlashib umumiy ko'rsatkichning 2,76 f.d. o'sish sur'atini, **xizmatlar** esa **4,8** % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha 1,11 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma

ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 52,1 % i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 34,2 % i va xizmatlar hissasiga 13,7 % i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining 9,8 % ga oshishi hisobiga 2022-yilning yanvar-sentyabrida INI 3,91 f.d. yuqoriladi. Salmoq ko'rsatkichlarida ushbu tovarlar hissasiga kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 48,3 % i to'g'ri keldi. Ushbu bo'lim tovarlari orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining oshishi yetakchilik qildi. Shunday qilib, mazkur guruhga kiruvchi mahsulotlar narxlari joriy yil boshidan 26,5 % ga oshdi. Bundan tashqari, shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (23,9 %) narxlari ham sezilarli darajada oshdi. Joriy yilning yanvar-sentyabrida bug'doy uni narxlari o'rtacha 40,7 % ga, shakar narxlari esa 53,8 % ga oshdi.

Boshqa bo'limlar orasida narxlarning sezilarli oshish darajasi restoranlar va mehmonxonalar (15,2 %), dam olish, sport va madaniyat (11,2 %) sohasidagi xizmatlar, maishiy tovarlar va xizmatlar (11,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (10,4 %) hamda uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarni joriy ta'mirlash xizmatlari (9,4 %) narxlarida qayd etildi.

5. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **189 999,8** mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,0** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi 32,9 % ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 4,4 %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – 9,8 %, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 33,5 %, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 12,5 %, aholi mablag'lari – 10,1 %, Respublika budjeti – 7,8 %, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – 0,5 %, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi 1,0 %.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2021-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari - 110,7 %, Respublika budjeti – 95,7 %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – 130,2%, aholi mablag'lari – 112,6 %, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 96,6 %, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 98,2 %.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 49,4 %, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – 44,5 % kuzatildi.

6. Qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi – 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida **94 117,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **106,3** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 24657,5 mlrd. soʻm yoki 26,2 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 51363,2 mlrd. soʻm yoki 54,6 %, norasmiy sektor subʼektlari tomonidan 18097,2 mlrd. soʻm yoki 19,2 % bajarildi.

7. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **214 086,7** mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **10,8** % ga oʻsdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 28,7 % ga oʻsdi, bu esa umumiy savdo hajmining 21,6 % ulushiga toʻgʻri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 6,0 % ga koʻpaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,4 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 8,3 % ulush bilan 17 803,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

8. Tashqi savdo aylanmasi

2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **36 024,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 7 701,4 mln. AQSh dollariga yoki **27,2** % ga koʻpaydi.

Jumladan, eksport hajmi 14 051,5 mln. AQSh dollariga (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 35,7 % ga oʻsish) va import 21 973,1 mln. AQSh dollariga oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ga oʻsdi).

Eksport tarkibida ham oʻsish kuzatildi, jumladan: Xayvonlar va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar oʻtgan yilning mos davriga nisbatan - 17,3 b. (19,0 mln. AQSh doll gacha), ichimliklar va tamaki - 3,3 b. (54,1 mln. AQSh doll), turli xil tayyor buyumlar - 34,6 % ga (198,3 mln. AQSh doll), oziq-ovqat maxsulotlari va tirik xayvonlar-17,2 % (158,8 mln. AQSh doll), shuningdek sanoat tovarlari 8,8 % ga (276,2 mln. AQSh doll).

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar- 17,7 % (1 060,9 mln. AQSh dollar), sanoat tovarlari - 28,9 % (946,3 mln. AQSh doll), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash maxsulotlar- 18,8 % (479,1 mln. AQSh dollari) toʻgʻri keladi.

9. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **253,8** trln. soʻmni tashkil etdi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **15,4** % ga oʻsdi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining oʻsishida moliyaviy xizmatlarning 29,6 % ga (koʻrsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining oʻsishidagi taʼsiri 6,4 punkt), transport xizmatlari 11,9 % ga (oʻsishdagi taʼsiri

2,8 punkt), savdo xizmatlari 8,2 % ga (o'lishdagi ta'siri 2,1 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,1 % ga (o'lishdagi ta'siri 1,5 punkt), boshqa xizmatlar 13,7 % (o'lishdagi ta'siri 0,5 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlar 12,1 % (o'lishdagi ta'siri 0,5 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 15,3 % (o'lishdagi ta'siri 0,4 punkt), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 10,7 %. Ularning ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'lishidagi ta'siri 0,3 punktni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (63,8 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'lish sur'ati 108,2 %), moliyaviy xizmatlar (58,6 trln.so'm, 129,6 %) va transport xizmatlari (55,6 trln.so'm, 111,9 %)ga to'g'ri keladi.

10. Korxonalar va tashkilotlar soni

2022-yil 1-oktabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **578,0** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 509,7 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'lishi **7,3** % ni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 7,9 %) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'lishi Xorazm (13,6 %), Samarqand (12,7 %), Qashqadaryo (10,2 %), Farg'ona (8,5 %), Surxondaryo (7,9 %), Jizzax (7,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'lishi savdo (12,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (10,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (9,7 %), tashish va saqlash (6,9 %), axborot va aloqa (5,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5,8 %), sanoat (3,1 %) hamda qurilish (2,3 %) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022-yil yanvar-sentabr oyida respublikada 72,0 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 69,3 mingtani tashkil etdi.

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 14 768 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'lishi 11,6 % ni yoki 1 531 tani tashkil etdi. Ulardan 6 267 tasi qo'shma korxonalarni va 8 501 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.